

A.P.FEDCHENKONING “SAYOHATNOMA”SIDA QO‘QON XONLIGI TARIXIY GEOGRAFIYASIGA OID AYRIM MA’LUMOTLAR

Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich,

Tarix fanlari nomzodi, professor

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrası

A.П.ФЕДЧЕНКО О КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы источниковедения политико-исторической географии Кокандского ханства. В статье анализируются исторические источники Кокандского ханства, в частности, сведения об исторической географии ханства, содержащиеся в путевых заметках А.П. Федченко, совершившего поездку в Коканд.

Ключевые слова. Коканское ханство, историческая география, путешествия, дороги, расстояния, климат, природа.

A.P.FEDCHENKO ON THE KOKAND KHANATE

Annotation. This article analyzes the issues of source studies of the political and historical geography of the Kokand Khanate. The article analyzes the historical sources of the Kokand Khanate, in particular, information about the historical geography of the Khanate contained in the travel notes of A.P. Fedchenko, who made a trip to Kokand.

Keywords. Kokand Khanate, historical geography, travel, roads, distances, climate.

Farg‘ona vodiysi, xususan, Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyoning muhim siyosiy va geografik hududlaridan biri bo‘lib, nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun Markaziy Osiyoda asrlar davomida sodir bo‘lgan deyarli barcha tarixiy jarayonlarda muhim o‘rin tutish bilan birga ularda sezilarli ta‘sirga ham ega bo‘lganligini e‘tirof etish mumkin. Farg‘ona vodiysi nafaqat siyosiy va iqtisodiy tarixiy jarayonlar, balki, mintaqa xalqining ma‘naviy, madaniy, ilmiy taraqqiyoti jarayonlariga ham katta ta‘sir ko‘rsatgan. O‘rta asrlarda, ayniqsa temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar sulolalarining hukmronligi davrlarida siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga jiddiy ta‘sir o‘tkazish bilan birga, XVIII asr boshlariga kelib alohida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Qo‘qon xonligining asosiy hududi bo‘lib qoldi. Farg‘ona vodiysi, undagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlar, aholisi, uning tarkibi va mashg‘uloti, tabiati, tog‘lari va daryolari, umuman tarixiy geografiyasiga ko‘plab qimmatli ma‘lumotlar bir qator o‘rta asr mualliflarining asarlarida tavsiflab berilgan. Bunday mualliflar qatorida Maxmud ibn Vali [1], Zaxiriddin Muhammad Bobur [2], shuningdek, Muhammad Hakimxon

to'ra[3], Isxoqxonto'ra Ibrat [4], Muhammad Aziz Marg'iloniy [5] kabi Qo'qon tarixnavislik maktabiga oid ko'plab manbalarni ko'rsatib o'tish mumkin [6].

Qo'qon xonligi tarixini aks ettiruvchi manbalarning yozilish uslublari, voqealar tahliliga yondashuvlari va voqealarning talqin qilinishi kabilardagi rang-baranglikni kuzatish mumkin-ki, aynan shu jihatlari bilan bu asarlar bir asrdan ortiq vaqt davomida tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda va ayni vaqtda keng miqyosda tadqiqot obyektiga aylanib kelayotganligi bilan ham o'zining dolzarbligini saqlab kelmoqda [7.148-149]. Qo'qon xonligi tarixini yoritib beruvchi va nisbatan muhim ahamiyat kasb etuvchi asarlar ko'pchilikni tashkil etib, ulardan Muhammad Yunus ibn Muhammad Amin Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar» [8], Mullo Avaz Muhammad ibn Mullo Ro'zi Muhammad So'fi – Avaz Muhammad Attor Xo'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi» [9], Mullo Yunus Toshkandiyning «Xotiralar»i [10], Hakimxon To'raning Muntaxab ut-tavorix [11], Mullo Olim Mahdumxojaninng «Tarixi Turkiston» [12] kabi mualliflar va ularning asarlarida Qo'qon xonligi siyosiy-tarixiy geografiyasiga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin.

O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar o'rta asrlarning mashhur geografi va sayohatchilari anchayin darajada mukammal ko'rsatib berilgan bo'lib, ular orasida Farg'ona vodiysi, jumladan, Qo'qon xonligiga oid ma'lumotlar ham alohida e'tiborni tortadi[13.148-149].

Shulardan biri A.P.Fedchenko bo'lib, uning faoliyatida 1871 yilda Qo'qon xonligiga qilgan sayohati alohida o'rin tutadi[14]. 1871 yilning may oyi oxirlarida Toshkentdan Qo'qonga yo'l olgan A.P.Fedchenko boshchiligidagi jami olti kishidan* iborat tadqiqotchilar guruhi Xo'jand shahrida to'xtaydi. Qo'qonning o'ziga borish uchun esa shaxsan xonning o'zidan ijozat olish kerak edi. Xo'jandda bir necha kun turgan A.P.Fedchenko nihoyat 12 iyun kuni Qo'qon xoni - Sayid Muxammad Xudoyorxon qabuliga kirishga erishdi. Bu haqda sayyohning o'zi shunday yozadi: - "Xon meni o'zining saroyida qabul kildi. U janob general-gubernator nomidan[15] xonga bitilgan maktubni o'qib chiqqach, bir og'iz "yaxshi" so'zini aytdi. So'ng bizga saroyning bir qancha xonalarini ko'rsatishdi va to'nlar in'om etishdi va biz uyga qaytdik. Xonning ana shu bir og'iz aytgan "yaxshi" so'zi biz uchun Qo'qon xonligiga sayohat qilishimizga ijozat edi".

A.P.Fedchenko ekspeditsiyasini kuzatib borish uchun xon tomonidan Abdukarim qorovulbegi boshchiligida yetti kishi birlashtirildi. Ekspeditsiya xonlik tomonidan to'liq ta'minotga erishgach, safarga o'tlanadi. Sayyohlar o'zlari borgan va ko'rgan joylar, ulardagi xayvonot olami, ayniqsa o'simliklar va giyohlar to'g'risida o'z qaydnomalarida batafsil ma'lumotlarni qayd etib boradilar. A.P.Fedchenkning kundaligida quyidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin:

* Ularning bir nafari ayol kishi bo'lib, A.P.Fedchenkning rafiqasi O.I.Fedchenko edi.

-“Xonlik hududlari sharqdan g‘arbga cho‘zilgan keng vodiya joylashgan bo‘lib, Qo‘qon atroflaridagi tekisliklardan ancha baland edi.

Isfara qadimda Asfara deb atalgan bo‘lib, uning atrofidagi tog‘lar ham shu nom bilan yuritilardi. Bu yerda eng qadimgi tarix izlari topilgan bo‘lib, shahardagi qadimgi masjid xarobalari aholining aytishicha Abdullaxon tomonidan qurilgan va "Abdullaxon madrasasi" deb yuritilgan masjid xarobalari edi. Isfaraga yaqin darada sun‘iy tarzda ko‘tarilgan tepalik bo‘lib, unda butunlay vayron bo‘lgan no‘malum qo‘rg‘on qoldiqlari bor edi. Hatto aholi orasida ham bu yerda qanday qo‘rg‘on bo‘lganligi va qanday kishilar yashaganligi haqida ma‘lumotlar saqlanib qolmagan edi. Bu va undan yuqoriroqda tog‘ tepasida joylashgan qo‘rg‘on qoldiqlari aholi orasida Zimrasha deb atalganligi ma‘lum bo‘ldi”. Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, ekspeditsiya a‘zolari faqat xonlikning tabiati bilan emas, balki uning turli mavzalaridagi joy nomlari, bunda joylashgan tarixiy obidalar va ularning yaratilish tarixi bilan ham qiziqib, xalq tilidan yozib olingan ma‘lumotlarni yozib qoldiradilar.

Isfarada arava yo‘li tugaydi, bu yerdan ancha keng va ajoyib manzaraga ega bo‘lgan yo‘l bo‘lib, u vodiya yunalgan va 18 chaqirimdan so‘ng Sur va Chorku qishloqlariga tutashadi.

Vorux qishlog‘idan boshlanadigan yo‘l Xoja Chiburg‘on darasi orqali Jiptiq dovoniga ko‘tarilar edi. Bu dovonning balandligi taxminan 12000 fut¹ bo‘lib, nishabligi juda o‘tkir edi. Shundoqqina oyoq ostida, 9500 fut² balandlikda esa Jiptiq daryochasi oqib o‘tar edi. Daryochaga aylangan bu jilg‘ani Isfara daryosining boshlanishi deb hisoblash kerak. Bu jilg‘a Aytmuxammadbiyga qarashli yaylovdan 8 chaqirim naridagi muzlikdan oqib chiqadi. Sayohatchilar tog‘ qoyalari orqali muzlik tomon 4 chaqirim yaqinlashgach, katta qiyinchilik bilan muzlikkacha yetib boradilar. Muzlik boshlanishida kattagina doirasimon shakl xosil qilgan bo‘lib, asosiy qismi ulkan qorli cho‘qqiga tutashgan va 3-4 chaqirimli chiqish yo‘lagi mavjud edi. Janub tomoni 9 ta yirik cho‘qqili qoyalar bilan o‘ralgan bo‘lib, ayrimlarining balandligi taxminan 18000-19000 futga³ yetib, eng pastki nuqtasi 14000 futni⁴ tashkil etardi. Qoyalar orasidagi bo‘shliqlar ulkan muzliklar bilan qoplangan edi. Muzlikni tasvirlar ekan, sayyoh quyidagilarni qo‘shimcha qiladi: "- Muzlikning men turgan joyi taxminan 12000 fut⁵ balandlikda bo‘lib, bu yerdan yetti qator toshli qoyalar ko‘zga tashlanar edi. Muzlikning bu qismida ko‘plab mayda jilg‘alar oqib chiqayotgan bo‘lib, asosiy muzlikning ustki qismi yana yupqa, mo‘rt muz qatlami bilan qoplangan edi. Bu qavatdagi muz qatlamining ostida yashiltob rangdosh yana bir qatlam ko‘rinib turib, unda juda ko‘plab pufakchalar ko‘zga tashlanardi. Bu yerda muzlikda men Yevropa muzliklarida

¹ Taxminan 3658m

² Taxminan 2995m

³ Taxminan 5486-5791m

⁴ Taxminan 4267m

⁵ Taxminan 3658m

uchraydigan va ilmiy tilda "Rodura" deb ataladigan hasharotni ko'rdim. Muzlikning quyi qismi 10000 futgacha¹ pasayib borardi...

Mazkur muzlikni va undagi eng baland cho'qqiga jamiyatimiz (Rossiya imperyasi geografiya jamiyati) prezidenti Shurovskiy nomini berishga qaror qildim." [16]

Sayyoh o'zi guvohi bo'lib kuzatib turgan muzlikni imkon qadar tasvirlab berish va uni ilmiy adabiyotlarga kiritish uchun ba'zi ma'lumotlarni o'z daftariga qayd etib boradi.

-«Pastlashgan sari muz qoyalari o'zlarining shaklini o'zgartirib borib, eriy boshlaydi. Muzlikning pastki qismi 10000 fut² balandlikkacha pasayib boradi. Aniqlanishicha, muzlikning hajmi avval anchagina katta bo'lgan ekan, buni muzlikning yarim doirasimon asosi va undan 50-55 metrlar atrofdagi muz izlari, terskay qoyalar orasidagi muz qoldiqlaridan bilish mumkin edi. Shuningdek uning balandligi ham o'zgarib turganligi aniqlandi, 60 metrlar balandlikdagi muz izlariga qaraganda hozirgi muzlikning balandligi 24-26 metrlarini tashkil qilardi. Muzlik qoyalari erib, undan doimiy ravishda muz bo'laklari va toshlar ajralib tushardi. Muzlikning dastlabki chegarasidan hozirgi chegarasigacha bo'lgan oraliqda turli tog' o'simliklari ko'm-ko'k bo'lib o'sib yotardi. Muzlikning erishi natijasida hosil bo'layotgan jilg'a uch yo'nalishda shakllanardi. Birinchisi muzlikning shundoqqina tagidan oqib chiqsa, qolgan ikkitasi muzlikning ikki chekkasidan oqib chiqardi va bu joyda kengligi 80-90 sm ga teng yoriq paydo bo'lgan edi.

Jiptiq pastlab borgan sari unga bir necha jilg'alar qo'shilib, "Kirovchi" nomini oladi. Xoja Chiburg'on esa Kishmish daryosiga quyiladi. Varux qishlog'idan pastroqda Kishmish va Kirovchi qo'shilib, ancha yirik bo'lgan Isfara daryosini hosil qiladi. Bu ekspeditsiyamiz muzlik yaqinidagi va Jiptiq dovonidagi 10-12000 fut³ balandlikdagi tog' o'simliklarini tadqiq qilish borasida ham g'oyat samarali bo'ldi. Yana bir ajoyib kashfiyotlardan biri Sagadana* deb nomlanuvchi butaning o'rganilishi bo'ldi. Bu buta Zarafshon vohasida bir marta ham uchramagan edi, aniqlanishicha mazkur buta Norin atroflariga xos ekan.

Voruxga qaytib kelgach, biz qirg'izlarning Qorabuloq qishlog'i orqali So'xga yo'l oldik. Bu yo'nalishdagi Qorako'l darasi ham katta qiziqish uyg'otardi. So'x orqali o'tgan yo'l Qorateginga borardi. Biroq menga bu yo'ldan borish nasib etmadi. Chunki bu vaqtda ko'tarilgan qirg'izlarning qo'zg'oloni barcha qo'qonliklar uchun bu yo'lni berkitib qo'ygan edi [17].

¹ Taxminan 3048m

² Taxminan 3048m

³ Taxminan 3048-3658m

* Sedana bo'lishi kerak

Yo'l davomida katta-kichik sakkizta dovon bo'lib, bir qancha daryochalar va ko'llar, shuningdek Taroq deb nomlanuvchi anchagina katta muzlikdan o'tilardi. Muzlikning Taroq deb nomlanishiga sabab unda ko'plab yoriqlarning mavjudligi edi. Bu yo'l Qorateginning Yorqush qishlog'iga chiqib, u yerdan Soqov va Kashob qishloqlari orqali Garm qishlog'iga chiqilardi. Biroq qirg'izlar bilan to'qnashuvlar davom etayotganligi bois bu yo'lning sharqidagi boshqa dovonlar orqali yurishga majbur bo'ldik. So'x qishlog'ida biz bir kun dam olib, shu yerdan Marg'ilon yoki Shohimardonga borish rejasini tuzishga kirishdik».

A.P.Fedchenkoning 2 iyulda Shohimardondan yuborgan xatiga ko'ra, sayohatchilar u yerga borishgan. Shohimardonga borishdan avval Toshmuhammad yuzboshi ekspeditsiya a'zolarini kuzatib borishni o'z zimmasiga olgan edi, biroq shu kuni Abdukarim qorovulbegi xuzuriga kelgan aholi Qoraqoziq dovoniga borish juda ham xavfliligini aytishdi. Agar u yerga boradigan bo'lsa hujumga uchrashi va xon tomonidan hurmatga sazovor bo'lgan ekspeditsiya a'zolarini xavf ostiga qo'yishi mumkinligini aytib, ogohlantirishdi.

Shu o'rinda A.P.Fedchenko Shohimardon haqida ayrim ma'lumotlarni berib o'tishga va uni turli sifatlarini tavsiflab berishga harakat qiladi. - «Shohimardon Qo'qonning eng muqaddas joylaridan bo'lib, aholining aytishicha bu yerda muqaddas Shohimardon qabri joylashgan bo'lib, uni to'rtinchi xalifa Aliga qiyoslashar ekan. Shohimardonda ikki daryo - Qorasuv va Oqsuv birlashar ekan. Qorasuv daryochasi bo'ylab olti chaqirim, Oqsuv daryochasi bo'ylab o'ttiz chaqirim yo'l bosdim. Oqsuv bir necha jilg'alar qo'shilishidan hosil bo'lib, ularning eng yirigi Olovuddin jilg'asi muzlikdan oqib tushar ekan. Dovon Qoraqoziq jilg'asining yuqori qismida ekan. Men dara bo'ylab 12000 fut¹ balandlikka ko'tarildim. Jarlik tepasidagi ulkan qoya ortida, chap tomonda qor bosgan qing'ir-qiyshiq yo'l izlari ko'zga tashlanardi, bu dovon edi. Dovonning balandligi taxminan 14000 fut² bo'lib, sharqdan g'arbga tomon bir necha cho'qqilar orqali o'tardi. Bu cho'qqilarning balandligi 19000-20000 futdan³ kam emas edi. Qorli tog' tizmasi sharqdan g'arbga cho'zilgan bo'lsada, ma'lum darajada janub tomonga siljib borayotgandek edi.

A.P.Fedchenkoning sayohatnomasida e'tiborga loyiq qismlaridan yana biri G'ulja, O'zgan va ularning atrofidagi hududlari haqida ma'lumotlardir.

- «7 avgustda biz pilta miltiqlar bilan qurollangan qo'riqchilar hamrohligida katta karvon yo'li bo'ylab G'uljaga yo'l oldik. O'shdan 11 chaqirim yurgach, Moda qishlog'iga yetib keldik va shu yerda tunab qoldik. Bu yerdan Langar va Qoplonko'l

¹ Taxminan 3658m

² Taxminan 4267m

³ Taxminan 5791-6096m

orqali o'tib, yo'lag chiqqanimizning uchinchi kuni G'uljaga yetib keldik. Yo'l balandligi 7000 futgacha¹ bo'lgan ikki dovon orqali o'tib, yurish qiyin ems edi.

... G'ulja yo'li va G'uljaning o'zi yumshoq tuproqli tog' oldilarida joylashgan bo'lib, ularni tog' emas, ko'proq tepaliklar deb aytish to'g'ri bo'lardi. Yilning bu vaqtida o'simliklar qurib qolgani uchun namunalar boy bo'lmadi. Biroq zoologiya sohasida ayrim jonzotlarni kuzatishga muvaffaq bo'ldim. Shulardan biri qoraqurt edi...». G'uljadan ortga qaytgan A.P.Fedchenko shu yerda o'zining asosiy sayohatini tugatish va ortga qaytishga qaror qiladi. Erishilgan natijalar haqida esa umumiy ma'lumotlarni qayd etib o'tadi.

- «Qo'qon xonligining janubi-sharqiy tomoniga qilingan bu ekspeditsiyaning ushbu qismi natijasida geografiya sohasida ham bir qancha ma'lumotlarga ega bo'ldik: G'ulja va Teak dovonga boradigan yo'l hamda dovonning o'zi avval tahmlin etilganidek Sirdaryo vodiysida emas, balki uning chap qirg'og'idagi irmog'i - Qurshoba vodiysida joylashgan ekan. Ma'umki daryoning yuqori oqimi Norin daryo deb ataladi va Sirdaryoning irmog'i hisoblanadi. Qo'qonliklarning tasdiqlashicha, bu irmoq daryoning eng sersuv qismi bo'lib, Shahrixon va Andijonga katta-katta ariqlar orqali suvning olib ketilishi Norin daryoning suvi kamayib ketishiga sabab bo'lgan ekan. Dovonning holati shu vaqtgacha mavjud xaritalardan farq qiladi: uni g'arbga tomon 80 chaqirimcha, shimolga esa 30 chaqirimcha siljitish lozim. Ajoyib faktlardan biri shu bo'ldiki, Terak dovoni Qoshg'ar bilan yoz oylarida qor va muzliklar erib, suv ostida qolgani uchun qishda foydaniladi, degan Ritterni fikrini butkul rad etib shuni aytish mumkinki, dovon toshlar bilan to'lib toshgani uchun yozda yurish deyarli mumkin emas, qishda qor yog'ib, yo'llar tekis bo'lganligi uchun qishda foydalanilar ekan. Yozda karvonlar Bosh Oloyga borish uchun Shartdovon dovonini ma'qul ko'rar ekan. Oloydan Tovmurun dovoniga ko'tarilib, To'qayboshi degan joyda Terak dovondan keluvchi yo'lga chiqilar ekan. Terak dovonni men O'zgandga ketayotganda Torpay dovonidan turib kuzatdim. Bu yerdan turib ulkan qorli tizmaning va Sirdaryo havzasidagi Amudaryoga quyuluvchi Qizilsuv ajralishini kuzatish mumkin edi. Qoshg'ar dovon deb nomlangan qorli tizmaning manzarasi juda ajoyib bo'lib, undan shimolda joylashgan tog'lar nisbatan pastroq edi. Afsuski, kun bulutli bo'lgani uchun ularning o'lchamlari haqida aniq xulosaga kela olmadim.

O'zgandga borishda men Sirdaryoni hosil qiluvchii Tar va Qora G'ulja daryolarini ko'rish imkoniga ega bo'ldim. Ulardan so'ng O'zganddan 10 chaqirim yuqoriroqda Sirdaryoga o'ng tomondan Yassi va so'l tomondan Qurshob irmoqlari quyilar ekan. O'ng tomondagi tog'lardan oqib chiqayotgan bir qancha jilg'a va soylar bo'lsada, ular Sirdaryogacha yetib bormas ekan. Daryoning Sir deb atalgan qismi

¹ Taxminan 2134m

tekislikka chiqqach, Shishtepa degan joydan boshlanishini mahalliy aholi aytib berdi. Sirdaryoning boshlanishi deb esa, Tar daryochasini hisoblash kerak ekan.

O'zgandning xaritada holati ham o'zgarishi ma'lum bo'ldi. U belgilanganidek, Andijondan 120 chaqirim emas, to'g'ri sharqqa tomon 63 chaqirim ekan. Bu yerda ikkita tarixiy obida – maqbara va balandligi 15-16 metrlik chamasi minoralar bo'lib, aholining aytishicha ularning qurilganiga 760 yil bo'lgan ekan. Ular ancha vayron bo'lgan bo'lsada, o'zining salobati va ajoyib arxitektura xususiyatini saqlab qolgan edi». Shu tariqa A.P.Fedchenko Qo'qon xonligiga qilgan sayoxatini tugatib ortga qayta boshlaydi, qaytishda esa xon qabulida bo'lib, o'zining sayoxati va taassurotlari haqida so'zlab berib, Toshkentga qaytadi: -«O'zganddan bizning Toshkentga qaytish yo'limiz boshlandi. Norin o'lkasiga borish to'g'risida ijozat olmaganim uchun Toshkentga Qo'qon xonligi orqali ketishga qaror qildim. Yo'lda Andijon va Namanganda to'xtadim. Andijonga borgan kunimning keyingi kuni bu yerga xon keldi va meni qabul qildi. Odatdagi salomlashishlardan so'ng xon mendan yana qayoqqa borishimni hohlashimni so'radi. Men Namanganga borib, u yerdan eng qisqa yo'l bilan Toshkentga qaytishimni aytdim».

Qo'qon xonligiga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyasini tugatgan A.P.Fedchenko 1871 yilning 27 avgust kuni Toshkentga yetib kelgan edi [18].

Yuqoridagilarga xulosa sifatida aytish kerakki, XIX asrning ikkinchi yarmida davomida O'rta Osiyo xonliklari hududlarida turli sabablar va maqsadlar bilan bo'lgan, tadqiqotlar o'tkazgan yoki sayohatlarini amalga oshirgan olimlar, mutaxassislar, sayohatchilar tomonidan yozib qoldirilgan esdaliklar va hisobotlar hamda ma'lumotnomalar bugungi kunda o'zining manbaviy jihatlari bilan alohida e'tibroni tortadi. Chunki bu hujjatlarda O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Qo'qon xonligining iqtisodiy, siyosiy tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolgan bo'lib, ular xonlikning siyosiy-tarixiy geografiyasi masalalarini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Ильхамов Зиевутдин Адхамович,

кандидат исторических наук, профессор.

кафедра Истории Узбекистана Национального педагогического
университет Узбекистана имени Низами.

Ilkhamov Ziyovuddin Adxamovich,

Candidate of Historical Sciences, Professor.

Department of History of Uzbekistan of the National Pedagogical University of
Uzbekistan named after Nizami.

(99) 138-28-75